

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MAMASALIYEV MIRZOULUG‘ MIRSAIDOVICH**

**POSTMODERN JAMIYATDA O‘ZGALARGA TOQATLILIK  
DEFORMATSIYASI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philosophical sciences**

<b>Mamasaliyev Mirzoulug‘ Mirsaidovich</b> Postmodern jamiyatda o‘zgalarga toqatlilik deformatsiyasi.....	5
<b>Мамасалиев Мирзоулуг Мирсаидович</b> Деформация толерантности к другим в обществе постмодерна.....	23
<b>Mamasaliev Mirzoulug Mirsaidovich</b> Tolerance deformation towards others in postmodern society .....	45
<b>E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati</b> Список опубликованных работ List of works published.....	50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MAMASALIYEV MIRZOULUG‘ MIRSAIDOVICH**

**POSTMODERN JAMIYATDA O‘ZGALARGA  
TOQATLILIK DEFORMATSIYASI**

**09.00.04 – Ijtimoiy falsafa**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Fal1375 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Rustamov Ramz Rizoqulovich**  
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Xajiyeva Maqsuda Sultanovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Ro‘zimurodov Siroj Madatovich**  
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “24” iyun soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: [buxdu\\_rektor@buxdu.uz](mailto:buxdu_rektor@buxdu.uz))

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (678 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “5” iyun kuni tarqatildi.

(2025-yil “5” iyun dagi 14 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



**Namozov B.B.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Sharipov A.Z.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
falsafa fanlari doktori, professor

**Safarova N.O.**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda axloqiy ziddiyatlar tobora chuqurlashib borayotgan davrda insonlar o'rtasida o'zaro tushunish, toqatlilik va bag'rikenglik kabi fazilatlarini rivojlantirish dolzarb ijtimoiy-madaniy vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, postmodern jamiyatga xos bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot va texnologik yuksalishlar insoniyat ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatib, shaxsning axloqiy qadriyatlari va hayotiy pozitsiyalarining o'zgarishiga, ba'zida esa ularning deformatsiyasiga olib kelmoqda. Shu bois, postmodern davrda bag'rikenglik va toqatlilikning susayishi fonida ijtimoiy xavfli mafkuralarning kuchayishini oldini olish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda o'zgalarga toqatlilikni shakllantirishning ilmiy-innovatsion qoidalarini, yosh avlod ongida "o'zgalarga toqatlilik" ko'nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy tamoyillarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida o'zgalarga toqatlilik, bag'rikeng inson shaxsini tarbiyalash bilan birga o'z manfaatidan voz kechib o'zgalalar uchun ham yashaydigan, ularga beg'araz yordam ko'rsatadigan, xudbinona istaklarini nazorat qiladigan insonlarni tarbiyalashning ilmiy asoslariga doir fundamental izlanishlar olib borilmoqda. Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik fazilatlarini rivojlantirish, bag'rikeng va ma'naviy jihatdan yetuk shaxsni tarbiyalash hamda individual manfaatlarini jamiyat ehtiyojlariga bo'ysundira oladigan inson tipini shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda. Shu nuqtai nazardan o'zgalarga toqatlilik komponentlari va ularni rivojlantiruvchi determinantlarni, tamoyillarni aniqlashtirish hamda o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamli bo'lish majburiyatlarining ontologik, sotsiologik va aksiologik-axloqiy asoslarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida o'zgalarga toqatlilikni, shakllantirishga qaratilgan muhim islohotlar amalga oshirilmoqda, jumladan, jamiyatda o'zaro hurmat, murosaviylik va toqatlilik tamoyillarini mustahkamlash, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati yuritish hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda bag'rikenglikni rivojlantirishga doir loyihalarda faol ishtirok etilmoqda. "Hozirgi tahlikali vaziyatdan chiqish uchun birinchi galda insonning qadr-qimmatini, uning huquq va erkinliklarini himoyalash, bag'rikenglik, turli xalqlarning an'ana va qadriyatlarini hurmat qilish, umumiy xavfsizlik hamda farovonlik, barqaror va izchil taraqqiyotga erishish, har xil buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashish kabi xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga og'ishmasdan rioya etish tamoyillarining ustuvorligini ta'minlash zarur"<sup>1</sup>. Buning uchun zamonaviy jamiyatda kechayotgan axloqiy qadriyatlarning deformatsiyasi sharoitida o'zgalarga toqatlilikni baholash mezonlarini, yosh avlod ongida "o'zgalarga toqatlilik" ko'nikmalarini shakllantirishning tamoyillarini hamda uni rivojlantirish modeli hamda yo'llarini ijtimoiy-falsafiy asoslab berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. - Тошкент: "O'zbekiston", 2024. - Б.32.

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-fevraldagi O‘RQ-1037-son “O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yilning 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zgalarga toqatlilik va sabr-bardoshlilik tushunchasining nazariy asoslari, semantik mazmuni, bu xususiyatni tarkib toptirishning huquqiy, ijtimoiy va ma’naviy qirralari, toqatlilik deformatsiyasi va zamonaviy jamiyat ziddiyatlari masalalari xorijlik olimlar T.Adorno, S.Mendus, J.Horton F.Djeymison P.Anderson, H.C.Kelman, R.N.Sharma tadqiqot ishlarida muhokama etilgan<sup>2</sup>.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.Asmolov, M.Zolotuxin, G.Sagalakova, G.Bardiyer, V.Vektorskiy, L.Skvartsov, R.Valitova, T.Dneprova, G.Soldatova, M.Vorobyova tomonidan o‘zgalarga toqatlilik va sabr-bardoshlilikni falsafiy-axloqiy tushuncha, shaxs shakllanishining zaruriy elementi,

---

<sup>2</sup> Adorno T. W. Late capitalism or industrial society? //Modern German Sociology. – Routledge, 2021. – С. 232-247.; Mendus S. Toleration and recognition: Education in a multicultural society //Journal of Philosophy of education. – 1995. – Т. 29. – №. 2. – С. 191-201.; Horton J. Liberalism, multiculturalism and toleration //Liberalism, multiculturalism and toleration. – London: Palgrave Macmillan UK, 1993. – С. 1-17.; Джеймисон Ф. Постмодернизм, или культурная логика позднего капитализма. - М.: Изд-во Института Гайдара, 2019.; Андерсон П. Истоки постмодерна. – Литрес, 2022.; Kelman H. C. (2001). The Role of National Identity in Conflict Resolution. Peace and Conflict: Journal of Peace Psychology, 7(1), 81–96.; Sharma R. N. Ethosphere and Cosmosphere: Two new concepts for World Bioethics, and their application to the Asian segment//Asian Bioethics in the 21<sup>st</sup> Century. – Eubios Ethics Institute; Asian Bioethics Conference, 2003

jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar tizimidagi yashash uslubi tarzida tahlil etilgan<sup>3</sup>.

Mamlakatimizda zamonaviy jamiyatda o'zgalarga toqatlilikning ijtimoiy, falsafiy, tarixiy, psixologik, pedagogik va sotsiologik jihatlari faylasuf, dinshunos, sharqshunos, tarixchi, pedagog, siyosatshunos olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, o'zgalarga toqatlilikning ijtimoiy-siyosiy voqelikdagi zaruriyati va o'ziga xos xususiyatlari M.Xajiyeva, A.Choriyev, N.Komilov, A.Ro'ziyev, Q.Nazarov, J.Yaxshilikhov, M.Abdurazakova, Z.Qodirova, A.Sharipova, E.Karimova, R.Rustamov, M.Islomov, Sh.Negmatova, Sh.Sirojiddinov, F.O'sarova, S.Ro'zimuratov, Z.Husnutdinova, R.Murtazayeva, Sh.Madayeva, E.Shermanov kabi olimlar tomonidan umumiy tarzda o'rganilgan bo'lib, o'zgalarga toqatlilik tushunchasi ijtimoiy-falsafiy sintegma sifatida baholanadi<sup>4</sup>.

Yuqorida qayd etilgan adabiyotlar tahlili va ularda tadqiq etilgan muammolar mamlakatimizda o'zgalarga toqatlilik deformatsiyasi muammosi maxsus tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmaganligini ko'rsatmoqda. Ushbu dissertatsiya ishida postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik deformatsiyasini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tadqiq etishga e'tibor qaratilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyoti tendensiyalari" (2020-2025 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

---

<sup>3</sup> Асмолов А. Г. Стратегия социокультурной модернизации образования: на пути к преодолению кризиса идентичности и построению гражданского общества // Вопросы образования. – 2008. – №. 1. – С. 65-87.; Золотухин В. М. Социально-философский и культурологический аспекты деятельности человека в рамках цифровой реальности // Вестник Кемеровского государственного университета. Серия: Гуманитарные и общественные науки. – 2020. – Т. 4. – №. 4 (16). – С. 323-329.; Сагалакова Г. А. Проблема толерантности и интолерантности в современном мире // Известия Алтайского государственного университета. – 2013. – Т. 1. – №. 2 (78). – С. 230-233.; Бардиер Г.Л. Социальная психология толерантности: Монография. – СПб.: Изд-во СПбГУ, 2005. – С. 120.; Лекторский В.А. О толерантности, плюрализме и критицизме. // Вопросы философии. – 1997. - №11. –С.46.; Валитова Р.Р. Толерантност: порок или добродетел. // Вестник Московского университета. – Сер. 7. Философия. – 1996. – № 1. – С. 37.; Днепрова Т.П. Педагогический анализ понятий «национальная толерантност», «этническая толерантност» и «межнациональная толерантност» // Педагогическое образование в России. – 2010. - №. 2. – С. 96.; Солдатова Г.У. Толерантност – норма жизни в мире разнообразия // Вопросы психологии. – М., 2002. – № 1. – С. 12.; Воробева М.В. Формирование механизмов религиозной толерантности // Культура и веротерпимост. К 300-летию Санкт-Петербурга. Материалы X Санкт-Петербургских религиозных чтений. – Санкт-Петербург, 2003. – С. 12-14.

<sup>4</sup> Xajiyeva M. O'zbekistonda bag'rikenglik jarayoni. – T.: «Abu-matbuot-konsalt», 2008.; Choriyev A. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. Ikkinchi kitob. - T.: Chinor, 2002.; Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. -Toshkent: Yozuvchi, 1996.; R'ziyev A.I. Илк ўспирин шахсида толерантликни шакллантирувчи ижтимоий-психологик омиллар. // Психология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент. ЎзМУ. 2020. –Б. 146.; Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2 - kitob T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2022. – B. 325; Abdurazakova M. va boshq. Tinchlik va bag'rikenglik atamallari izohli lug'ati / Mas'ul muharrir Q.A. Jo'rayev. – T.: JIDU, 2005. –B. 13.; Qodirova Z., Sharipova A., Karimova E. Tolerantlik madaniyati – davr taqozosi. – T.: Falsafa va huquq instituti, 2008. – B. 25.; Karimova E. O'zbek tolerantligi. – T.: Aloqachi, 2005. – B. 159.; Isломov M.Z., Sirojiddinov Sh.S., O'sarova F.X. Buyuk allomalar ijodida ahillik va bag'rikenglik g'oyalari. – T.: JIDU, 2005.- B.136.; Murtazayeva R.H. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik: O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2007. – B. 20–21.; Husniddinov Z. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik (monografiya). -T.: Toshkent islom universiteti, 2006. -B.156. Madayeva. Sh.O. Identiklik antropologiyasi. Monografiya. – T.: Noshir, 2015. – B.41-42.; Shermanov E.U. O'smirlarda islohotlarga daxldorlik fazilatini rivojlantirish. Ped. fan. bo'y. diss. avto. –Samarqand. SamDU. –B. 23.

**Tadqiqotning maqsadi** postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik tamoyilining mazmuniy o'zgarishlari va deformatsiyasining shaxs, jamiyat va umuminsoniy qadriyatlarga ta'sirini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

zamonaviy jamiyatda "o'zgalarga toqatlilik" tushunchasining ilmiy-konseptual asoslari va namoyon bo'lish shakllarini tadqiq etish;

postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarini aniqlashtirish;

jamiyatda destruktiv xarakterning shakllanishi ta'sirida o'zgalarga toqatlilik deformatsiyasining sabablari va oqibatlarini ochib berish;

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolarni tahlil etish;

postmodern jamiyatda diniy bagrikenglikni rivojlantirish zaruriyati, sohadagi ijtimoiy vazifalarni asoslab berish;

O'zbekiston sharoitida o'zgalarga toqatlilikni rivojlantirishning sekulyaristik-konsensus hamda alturistik fazilatlar asosida shakllantirish yo'llarini takomillashtirishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida postmodern jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sharoitida shakllanayotgan va rivojlanayotgan o'zgalarga toqatlilik hodisasining deformatsiyaga uchrash jarayonlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** postmodern tafakkur va ijtimoiy ongda o'zgalarga toqatlilik tushunchasining mazmunan o'zgarishi, g'oyaviy-falsafiy talqinlari, tamoyillarining zaiflashuvi, shaxs ongiga, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga va axloqiy qadriyatlarga ko'rsatadigan ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, statistik tahlil, statistik guruhlash, korrelyatsion-regression tahlil, dialektik, sinergetik yondashuv, sotsiologik so'rov kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik konsepsiyasining muloqot va integratsiya, ijtimoiy adolat va teng huquqlilik, ochiqlik, multiperspektivlik kabi konseptual omillari asosida toqatlilik, chidamlilik, sabr-bardoshlilikni mustahkamlovchi (huquqiy tenglik, g'oya va fikrlar xilma-xilligi, madaniy ong) mezonlari hamda uni yemiruvchi (begonalashuv, diskriminatsiya, identiklik inqirozi) kabi illatlar ochib berilgan;

o'zgalarga toqatlilik mohiyatini belgilovchi epistemik ochiqlik, axloqiy hurmat, ijtimoiy inkluzivlik kabi tarkibiy komponentlari va ularni rivojlantiruvchi ta'lim madaniyati, huquqiy normalar, ijtimoiy tarbiya, OAV va san'at vositalari kabi determinantlarini barqarorlashtirishda kontekstual moslik, tizimli yondashuv, axloqiy muvozanat tamoyillarni hisobga olish zarurati isbotlangan;

jamiyatda qadriyatlar nisbiyligi, gibrid madaniyat, identiklik inqirozi va ijtimoiy ong segmentatsiyasi kabi deformatsion jarayonlar tahlili asosida o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamli bo'lish majburiyatlarining ontologik (plyuralizm

nazariyalari, antropologik realizm), sotsiologik (xavf jamiyati konsepsiyalari) va aksiologik-axloqiy (inson qadri, inson – maqsad) asoslari dalillangan;

zamonaviy jamiyatda kechayotgan axloqiy qadriyatlarning deformatsiyasiga xos nisbiylik, dezoriyentatsiya, gipertolerantlik kabi tendensiyalar o'zgalarga toqatlilikning haqiqiy (ongli, empatik) ko'rinishidan indifferentlikka (loqaydlik) olib kelishi hamda ularni baholashning toqatlilik sifati, aksiologik barqarorlik, normativlik va erkinlik balansi, toqatlilik va loqaydlik tafovuti kabi mezonlari asoslab berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda o'zgalarga toqatlilikni shakllantirishning inson manfaatlari (huquq va erkinlik), foydali ijtimoiy mehnat (ehtiyoj), ijtimoiy adolat (aniq me'yorlar va o'lchovlar), ijtimoiy kafolat (kelishuv, himoya tizimi), teng erkinlik (hamkorlik) qoidalari tinchlikparvar siyosiy madaniyatning shakllanishiga xizmat qilishi asoslab berilgan;

yosh avlod ongida "o'zgalarga toqatlilik" ko'nikmalarini shakllantirishning umumbashariy gumanitar mezonlarga tayanish, "multimadaniyat", "polietniklik", "monomadaniyat", "polimadaniyat" va "madaniyatlararo dialog"ni to'g'ri anglash, dunyoviy davlat va din munosabatlarini tushunish, mafkuraviy tahdidlardan asrash tamoyillari aniqlashtirilgan;

postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilikni rivojlantirishning sekulyaristik-konsensus (qonunchilikda inson huquqlarining kafolatlanishi, turli qarashlarga ega insonlar o'rtasida ochiq muloqotni ta'minlash, siyosiy betaraflik, madaniyatlararo muvozanatni saqlash va ta'limda mutanosiblik) modeli hamda alturistik fazilatlar asosidagi (hamdardlik, g'amxo'rlik, ijobiy ijtimoiy muloqot, fidoyilik va hamkorlik ruhi, sabrlilik va kechirimlilik) rivojlanish yo'llari ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definityasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan g'oyalar hamda umumlashtirilgan ilmiy xulosalardan postmodern jamiyatda toqatsizlikni kuchayib borishiga ta'sir ko'rsatgan omillar va ularning falsafiy tahlili amalga oshirishda, diniy toqatlilikning sekulyaristik konsepsiyasini tahlil etishda, o'zgalarga toqatlilik tamoyilining zamonaviy talqini va undagi deformatsiya jarayonlarini chuqur falsafiy tahlil qilish orqali bugungi ijtimoiy ongda ro'y berayotgan qadriyatlar silsilasidagi o'zgarishlarni tushunishda nazariy-metodologik asos sifatida, shuningdek, aholi orasida birdamlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat ruhini kuchaytirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga qaratilgan dolzarb ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, dunyoviy qadriyatlar – vijdon erkinligiga, qonun ustuvorligiga,

mafkura va fikrlar xilma-xilligiga, dinlararo bag'rikenglik va millatlararo totuvlikka asoslangan jamiyatdagi umuminsoniy prinsiplar, normalar va qarashlar majmui yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan birdamlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat ruhini kuchaytirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash, vijdon erkinligi, mafkura va fikrlar xilma-xilligi, bag'rikenglik va totuvlikni ta'minlashga doir ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarida, talabalar bilan uyushtiriladigan "Besh muhim tashabbus" tadbirlarini tashkil etishda, falsafa, madaniyatshunoslik va pedagogika yo'nalishlarida o'quv dasturlarini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot loyihalarini yo'naltirishda, madaniyat markazlarining bag'rikenglikni targ'ib etuvchi dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda, inson huquqlari va ijtimoiy tenglikni targ'ib qilish, kamsitish holatlarining oldini olish bo'yicha profilaktik va normativ-huquqiy loyihalarni ishlab chiqish, sotsiologik, maxsus, ilmiy tadqiqotlar hamda boshqa turdagi tadqiqotlar va so'rovlar o'tkazishda, targ'ibot-tashviqot jarayonida, ma'rifat soatlari, "O'zbekistonning eng yangi tarixi", "Falsafa", "Dinshunoslik", "Ma'naviyatshunoslik" kabi fanlarni o'qitishda, talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik deformatsiyasining shaxs ma'naviy barqarorlikni ta'minlash hamda ijtimoiy munosabatlarda adolatlilikni ta'minlashdagi ahamiyatini tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik konsepsiyasining muloqot va integratsiya, ijtimoiy adolat va teng huquqlilik, ochiqlik, multiperspektivlik kabi konseptual omillari asosida toqatlilik, chidamlilik, sabr-bardoshlilikni mustahkamlovchi (huquqiy tenglik, g'oya va fikrlar xilma-xilligi, madaniy ong) mezonlari hamda uni yemiruvchi (begonalashuv, diskriminatsiya, identiklik inqirozi) kabi illatlarga doir xulosa va tavsiyalardan Farg'ona davlat universitetida bajarilgan PZ-20170930223-raqamli "Demokratik va huquqiy jamiyatni rivojlantirishda yoshlar ijtimoiy faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish" (2017-2020 yy) amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2024-yil 10-dekabrdagi 04/7298-son ma'lumotnomasi). Natijada, amaliy tadqiqot loyihasining ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirishga va mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni yanada takomillashtirishga xizmat qilgan;

o'zgalarga toqatlilik mohiyatini belgilovchi epistemik ochiqlik, axloqiy hurmat, ijtimoiy inkluzivlik kabi tarkibiy komponentlari va ularni rivojlantiruvchi ta'lim madaniyati, huquqiy normalar, ijtimoiy tarbiya, OAV va san'at vositalari kabi determinantlarini barqarorlashtirishda kontekstual moslik, tizimli yondashuv, axloqiy muvozanat tamoyillariga doir yangiliklar, taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining targ'ibot faoliyatida, jumladan, 2024-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "Milliy g'oya targ'ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog'lom mafkura, yangi ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar" 19-bandi "Ma'naviy taraqqiyotni

ta'minlash doirasida zamonaviy va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish" mavzusida targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 2-apreldagi 10/168-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatda bag'rikenglikni shakllantirishga doir tadbirlari, targ'ibot ishlari va boshqa faoliyatining nazariy asoslari rivojlantirishga hamda postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik deformatsiyasining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etishga xizmat qilgan;

jamiyatda qadriyatlar nisbiyligi, gibrid madaniyat, identiklik inqirozi va ijtimoiy ong segmentatsiyasi kabi deformatsion jarayonlar tahlili asosida o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamli bo'lish majburiyatlarining ontologik (plyuralizm nazariyalari, antropologik realizm), sotsiologik (xavf jamiyati konsepsiyalari) va aksiologik-axloqiy (inson qadri, inson – maqsad) asoslariga doir taklif va tavsiyalardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Hamma uchun" ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 19-noyabrdagi 01-44-447-son ma'lumotnomasi). Natijada, efirga uzatilgan ko'rsatuvlarning ijtimoiy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatini yuksalishiga, ko'p millatli muhitda milliy hamjihatlikni oshirishga xizmat qilgan;

zamonaviy jamiyatda kechayotgan axloqiy qadriyatlarning deformatsiyasiga xos nisbiylik, dezoriyentatsiya, gipertolerantlik kabi tendensiyalar o'zgalarga toqatlilikning haqiqiy (ongli, empatik) ko'rinishidan indifferentlikka (loqaydlik) olib kelishi hamda ularni baholashning toqatlilik sifati, aksiologik barqarorlik, normativlik va erkinlik balansi, toqatlilik va loqaydlik tafovuti kabi mezonlariga doir xulosalar va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqining "O'zbekiston Respublikasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga doir chora-tadbirlar" dasturining "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun va mohiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazishga qaratilgan targ'ibot tadbirlari" nomli II bandida belgilangan "Jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasining shakllanishi holati, turli sohalarida olib borilayotgan islohotlarning aholi turmush tarziga ta'sirini o'rganish maqsadida "Bag'rikenglik va daxldorlik tuyg'usi" mavzusida ijtimoiy tarmoqlar orqali aholi o'rtasida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish va natijalari asosida tahliliy materiallar tayyorlash"ga bag'ishlangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqining 2025-yil 1-apreldagi 04-13/264-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida g'oyaviy birlashuvning zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqish va ijtimoiy birdamlik tamoyillarini shakllantirish orqali ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash yo'llarini asoslashga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilikni tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida postmodern jamiyat va unda deformatsion jarayonlarning rivojlanishi hamda “o'zgalarga toqatlilik” tushunchasining mazmun-mohiyati va ilmiy-konseptual asoslari tadqiq etilgan hamda namoyon bo'lish shakllari va ijtimoiy ahamiyati, o'zgalarga toqatlilikni shakllantiruvchi ijtimoiy va shaxsiy omillar ochib berilgan.

Postmodern jamiyat XX asrning 80 yillari oxirida qaror topgan<sup>5</sup>. O'tgan asrning 70 yillarida boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy, industrial-texnologik, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar kishilik jamiyati o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yganidan dalolat beradi va bu bosqichga xos xususiyat va tendensiyalarini ifodalash uchun “postmodern jamiyat” tushunchasidan foydalanilmoqda. Ilmiy-konseptual tahlillarga ko'ra, postmodern jamiyatning g'oyaviy asoslari quyidagilardan iborat:

a) modern jamiyat qadriyatlarining (yorug' kelajakka yo'naltirilgan taraqqiyotning muntazamligi, fan va texnika progressi, iqtisodiy o'sish) inkor qilinishi;

b) tarix ma'nosi va ijobiy mazmunining tan olinmasligi, taraqqiyot ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarining inkor etilishi, borliq va haqiqat deontologizatsiyasi;

v) bilishda nominalizm tamoyilining mutlaqlashtirilishi, tushuncha va tushunchalar tizimi mazmunining tan olinmasligi;

g) axloqiy cheklovlarning yo'qolishi, axloqsiz iqtisodiy amaliyotlarga yo'l ochilishi;

d) reallikni emas, predmetdan ayri tushgan belgilarning voqe deb bilinishi<sup>6</sup>.

<sup>5</sup> Qarang: Лиотар Ж.-Ф. Состояние постмодерна / Пер. с фр. Н.А. Шматко — М.: Институт экспериментальной социологии; - Спб.: Алетейя, 1998. — 160 с.

<sup>6</sup> Румянцев М. Экономика общества Постмодерна: критический анализ // Христианское чтение, 2012, - № 6. - С.167.

Tadqiqotda postmodern jamiyatining asosiy xususiyatlari sifatida globalizatsiya - madaniy almashinuv va texnologiyalar rivoji orqali turli millatlar va madaniyatlar orasidagi chegaralarning yo‘qolishi; multikulturalizm - jamiyatdagi turli madaniyatlarning bir-biri bilan o‘zaro aloqadorligi va butunlashuvi; ijtimoiy tenglik - gender, irqiy va etniklik bo‘yicha teng huquqlarga erishish uchun kurash; nosanitarizatsiya - an’anaviy diniy va axloqiy qadriyatlarining kamayishi keltirilgan.

Dissertant fikricha, postmodern jamiyatda yuzaga kelgan tendensiya - odamlarning bir-biridan begonalashuvi, o‘zining sun’iy virtual tor dunyosiga kirib olib, individuallik va jamoaviylik kabi ikki asosiy insoniylik belgisini yo‘qota boshlaganidir<sup>7</sup>. Insonning o‘z ayniyati va individual xususiyatlarini tobora yo‘qotayotgani qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ularni hal etish uchun davlatlar, xalqlar, millatlar transmilliy hamkorlik aloqalarini kengaytirishga majbur. Chunki ular o‘z muammolarini ham, umumbashariy muammolarni ham mustaqil holda hal qilishi mushkul. Tolerantlik ikki xalq, millat o‘rtasidagi ziddiyat, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishda emas, balki davlatlararo munosabatlarda ham o‘ta muhim. O‘z qarashlarini “demokratiya bayrog‘i” shiori ostida o‘zga millat, xalqlarga kuch bilan singdirish global tolerantlik madaniyati qaror topishiga xavf solmoqda. Bu aslida tinchlikni milliy va umumbashariy darajada saqlash, xalqlarning o‘z tarixiy negizlariga muvofiq erkin rivojlanishiga qarshi terrorizmdir.

Postmodernizm davrida global ma’naviy tahdidlar, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi doimgidan ko‘ra dolzarbroq bo‘lib qolmoqda. Bunga ba’zi ob’ektiv omillar sabab bo‘lmoqda: *birinchidan*, tashqi omillar, ya’ni globallashtirish jarayonlariga katta ta’sir ko‘rsatib kelayotgan, iqtisodiy, siyosiy, geopolitik maqsadlarni ko‘zlayotgan transmilliy korporatsiyalar, turli siyosiy kuchlar insonlarni faol fuqarolardan ko‘ra nofaol iste’molchilarga aylanishidan manfaatdor. Buning uchun esa insonlarni yoki o‘ta radikal fanatlarga yoki o‘ta kompromiss (befarq)larga aylantirishga harakat qilinmoqda. *Ikkinchidan*, ichki omillar. Iqtisodiy tomondan rivojlanayotgan mamlakatlardagi qiyinchiliklar insonlarning kundalik hayotiga ta’sir etmoqda. Natijada esa insonlar faqat iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga harakat qilishmoqda, ma’naviy ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirilgan “servis xizmatlari” esa talab darajasida emas. Shuning samarasi o‘laroq ushbu mamlakatlarning aholisi uchun madaniy ehtiyojlar ta’minoti chetdan kirib kelmoqda.

Toqatlilik ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki u serqirra, ayni paytda plyuralistik fenomen bo‘lib, o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p namoyon bo‘lish shakllariga ega. Toqat, sabr, tinchliksevarlik, murosa, do‘stlik, hamjihatlik, ishonch, hurmat, tushunish, bilish, anglashga intilish va boshqa shu kabi axloqiy fazilatlar hamda ongli intilishlar shular jumlasidandir. Davlat va jamiyat darajalarida namoyon bo‘ladigan toqatlilik o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turishini ta’kidlash joiz. Xususan, demokratik davlatda irqi, millati, dini, tili, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa farqlovchi belgilaridan qat’iy nazar barcha fuqarolar uchun qonun asosida teng huquq, majburiyat va imkoniyatlar huquqiy kafolatlanadi.

---

<sup>7</sup> Qarang: Костина. А.В.Массовая культура как феномен постиндустриального общества. - М., 2011.

*Toqatlilik - o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr-mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan chidamli bo'lish, bir biriga o'xshamagan odamlarning birga ahillikda yashashga intilishni anglatadi.* Tadqiqotchi fikricha, toqatli inson – o'zligini anglaydigan va o'zgalarni tushunadigan inson. Demak, farq qilish huquqini tan olish toqatlilikning asosini tashkil etadi. Shuningdek, toqatlilik bir insonning qarashlarini boshqalarga tiqishtirish sifatida tushunilmasligi kerak. U insonni u qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish, siz qo'shilmasangiz ham boshqa millat va din vakillarining an'analari, qadriyatlarini va madaniyatini tushunish hamda qabul qilishda o'z ifodasini topadi. Ayni paytda, toqatlilik har qanday harakatlarga nisbatan loqaydlikni sira anglatmaydi. Masalan, irqchilik, zo'ravonlik, sha'nni kamsitish, inson huquq va manfaatlarini cheklash kabi illatlarga murosa qilish – axloqsizlikdan bo'lak narsa emas. Shunday ekan toqatlilik asosidagi chidamlilik va qabul qilish fazilati zo'ravonlik va buzg'unchilikka, irqchiligu millatchilikka, inson huquqlarini toptalishi-yu e'tiqodini tahqirlanishiga chidash va unga sabr qilish bo'lmasligi kerak. Shunchaki uni hurmat qilish, ularning ham yashovchanligini ongli qabul qilishni anglatadi.

Dissertatsiyada tolerantlik sabr-bardoshlilik, o'zlaridan farq qiladigan insonlar bilan muloqot o'rnatish qobiliyati, umumqabul qilingan fikrga, qarashga, e'tiqodga va g'oyaga qo'shilmaydiganlarga nisbatan chidamlilik sifatida talqin qilinadi. Tolerantlik insonning o'z asliyatini ifodalash shakllarining turli-tumanligini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni bildiradi. To'g'ri tushunish esa unga itoat etishni anglatmaydi. Insonning bu xislati uning gumanistik tabiatidan darak beradi va atrofdagilarga munosabati bilan belgilanadi. Boshqacha aytganda, tolerantlik bir-biridan farq qiladigan dunyoqarash, turlicha aksiologik qarashlar, turlicha shablonlar ichida yashaydigan insonlar o'rtasida gumanistik aloqalarni yo'lga qo'yishga tayyorlikdir. Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, inson yaqinlari, qarindosh-urug'lari, tanish-bilishlari bilan bo'lgan munosabatlarida tolerantlik ko'nikmalarini namoyon qila olishi mumkin, lekin boshqa e'tiqod, din yoki millat vakillariga nisbatan murosasizlikni, toqatsizlikni namoyon qilishi mumkin.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, postmodern jamiyatning deformatsion tendensiyalari sifatida modern jamiyat qadriyatlarining inkor qilinishi, taraqqiyot ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarining inkor etilishi, borliq va haqiqat deontologizatsiyasi, axloqiy cheklovlarning yo'qolishi va axloqsiz iqtisodiy amaliyotlarga yo'l ochilishi kabilarni keltirish mumkin. Bunday jamiyat sharoitida shaxs ijtimoiy rollari deformatsiyasi sodir bo'lganligi, uning mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga ham putur yetganligi hamda ushbu transformatsion jarayonlar, bir tomondan, shaxs fazilatlarini tarkibiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, boshqa tomondan esa, qator ijtimoiy illatlarning tarqalishiga sabab bo'lgan. Toqatlilik esa o'z navbatida insonning ichki va tashqi olamining hamohangligi va uyg'unligini ta'minlash barobarida jamiyat barqarorligini, o'zaro totuvlik, hamjihatlik va do'stlikni mustahkamlaydi.

Dissertatsiyaning **“Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilikning zaiflashuvi: sabab va oqibat dialektikasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida postmodern jamiyatda toqatsizlikni kuchayib borishiga ta'sir ko'rsatgan omillar,

o'zgalarga toqatlilik deformatsiyasi sabablari va ijtimoiy oqibatlari hamda O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar falsafiy tahlil etilgan.

Ijtimoiy ziddiyat - ijtimoiy birliklar o'rtasidagi munosabatlarni bir shakli bo'lib, xalqlar, millatlar va elatlarni ochiq qarama-qarshiligi, o'zaro bahsli holatini tavsiflovchi jarayon bo'lib, bu qarama-qarshiliklar qurolli to'qnashuvlar, hatto ochiq urushga aylanish xavfini vujudga keltirishi mumkin<sup>8</sup>. Ijtimoiy ziddiyatlarni kelib chiqishiga dunyodagi davlatlarni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining notekisligi, aksar davlatlarning iqtisodiy, ijtimoiy jihatdan qoloqligi, ayrim davlat rahbarlarining ehtiyotsizligi yoki atayin ekstremistik siyosat yuritishi, noto'g'ri amalga oshirilgan ayrim etnik birliklarni majburiy ko'chirish siyosati, ayrim davlatlarning milliy masalalarni hal qilishdagi noto'g'ri yondashuvlari, mustaqil davlatlarni etnik asosda o'zaro kurashlar girdobiga tortish uchun "uchinchi kuchlar" tomonidan atayin uyushtiriladigan qirg'inbarotlar kabi omillar sabab bo'ladi. Ijtimoiy ziddiyatlarni bartaraf etishda konsensus muhim ahamiyat kasb etadi. Konsensus qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlarni umumiy manfaatlardan kelib chiqib hal etish yo'llaridan biri hisoblanadi. Konsensus kelajakda o'zaro bitimlar, kelishuvlar, o'zaro majburiyatni belgilashda asos vazifasini o'tashi mumkin.

Tadqiqotda ijtimoiy toqatsizlik jamiyat rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi illatlardan biri sifatida asoslab berilgan. Toqatsizlik o'z qobiliyati va jamiyatdagi o'rnini topa olmaslik, o'zini o'zi baholay olmaslik oqibatida yuzaga keladi. Aynan shunday ko'nikmaning yetishmasligi ikki noxush holatga olib keladi. *Birinchi holatda* shaxs o'z imkoniyatlarini haddan ziyod yuqori baholab yuboradi. Natijada, u hech bir asossiz o'ziga ko'proq imtiyozlar talab eta boshlaydi. *Ikkinchi holda* esa shaxs, aksincha, o'z imkoniyatlarini past baholaydi, va u noshud, jur'atsiz, tashabbussiz kishi holatiga tushib qoladi. Buning ildizlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

*birinchidan*, tarbiyaga noto'g'ri yondashuv. Har bir ota-ona farzandini mas'uliyatli, o'z huquq va burchini yaxshi angelaydigan, faol fuqaro etib tarbiyalashga intilishi kerak.

*ikkinchidan*, shaxs ijtimoiylashuvi jarayonida, ya'ni jamiyatdagi mavjud qadriyatlar va me'yorlar tizimini o'zlashtirish jarayonida uzilish yuz berishi, uning ijtimoiy munosabatlarga to'la jalb qilinmasligi oqibatida ham boqimandalik kelib chiqadi.

Tadqiqotchi fikricha, postmodernizm davrida jamiyat paradoksal vaziyatga duch kelmoqda: bag'rikenglik va plyuralizm g'oyalarini e'lon qilgan holda, u ayni paytda ushbu qadriyatlarning inqirozini boshdan kechirmoqda. Boshqalarga nisbatan bag'rikenglikning deformatsiyasi tobora ko'zga tashlanadigan hodisaga aylanib, chuqur tahlil va anglashni talab qilmoqda.

Dastlab inson madaniyatlari, e'tiqodlari va turmush tarzlarining xilma-xilligini hurmat qilish va qabul qilish sifatida tushunilgan bag'rikenglik postmodernistik jamiyatda sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. Bu o'zgarishlar nafaqat bag'rikenglik konsepsiyasini nazariy anglashga, balki uning, odamlarning kundalik

---

<sup>8</sup> Axmedov M.M., Karimova S.T. Millatlararo munosabatlar va huquqiy madaniyatni yuksaltirish strategiyasi. - T.: "Adabiyot uchqunlari", 2018. -B.117.

hayotida, ijtimoiy institutlarda va siyosiy jarayonlarda amaliy namoyon bo'lishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Postmodernizm, falsafiy va madaniy oqim sifatida, universal haqiqatlardan voz kechish va ko'plab nuqtai nazarlarni tan olish bilan tavsiflanadi. Bu kontekstda bag'rikenglik odamlar, ularning qarashlari va turmush tarzi o'rtasidagi farqlarni qabul qilish va hurmat qilish qobiliyati sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq, postmodernistik jamiyatda bag'rikenglik konsepsiyasi ko'pincha buzilishga duchor bo'ladi. Farqlarni chinakam hurmat qilish va muloqotga tayyor bo'lish o'rniga, bag'rikenglik ko'pincha befarqlikka yoki hatto ijtimoiy nazorat shakliga aylanadi, bunda har qanday tanqid yoki kelishmovchilik toqatsizlik sifatida namoyon bo'lishi qabul qilinadi<sup>9</sup>.

Postmodernistik jamiyatda toqatlilikning deformatsiyasi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: a) Soxta toqatlilik: Boshqalarni ichki qabul qilmaslik yoki befarqlik paytida bag'rikenglikning tashqi ko'rinishi. b) Tanlab olingan toqatlilik: Bir guruhlar yoki g'oyalarni qabul qilish, ayni paytda boshqalarini rad etish. v) Agressiv toqatlilik: Toqatlilikni yagona to'g'ri pozitsiya sifatida majburlash, bu esa paradoksal ravishda boshqacha fikrlashga nisbatan toqatsizlikka olib keladi. g) Toqatsizlikka nisbatan toqatlilik: Boshqa madaniyat yoki e'tiqodlarga hurmat bahonasida toqatsizlik ko'rinishlariga toqatlilik.

Tadqiqot doirasida "Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilik deformatsiyasi" mavzusida maxsus so'rovnoma o'tkazilgan. Mazkur so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning umumiy miqdori 600 nafarni tashkil etgan. So'rovnoma Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatida yashovchi turli qatlam va soha vakillari o'rtasida o'tkazilgan. Mazkur so'rovnomaning natijalari va statistik tahlilini o'tkazib, natijalarni tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblangan. Xulosa qilib aytganda, g'oyaviy kurash har qachongidan keskinlashgan bugungi kunda yoshlarda demokratik tafakkur shakllanish xususiyatlari, ijtimoiy faollik xususiyatlarini ijtimoiy tadqiqotlar orqali o'rganish, unda diniy dunyoqarashning ta'sir doirasini to'g'ri baholash, bu sohada yetarli tadqiqot va izlanishlar olib borish muhim ahamiyatga molikdir. Bu jamiyat, millat va davlat kelajagi, istiqbolini hal qiluvchi masala hisoblanadi.

Dissertatsiyaning "**O'zbekiston sharoitida o'zgalarga toqatlilikni mustahkamlash imkoniyatlari**" deb nomlangan uchinchi bobida postmodern jamiyatda o'zgalarga toqatlilikni o'zgarishining psixologik aspektlari va mazmuni hamda jamiyatda o'zgalarga toqatlilikni shakllantirish istiqbollari tadqiq etilgan.

Hozirgi zamon insonida ikki dialektik holat paydo bo'ldi: bir tomondan, u mustaqil, o'ziga ishonadi, tanqidiy yondashadi, ikkinchi tomondan, tobora yolg'izlanib, boshqalardan ajralgan va qo'rqoq holatda yashay boshladi. Postmodern jamiyatda individ o'z fazilatlarini va sa'y-harakatlari evaziga ilg'or bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldi. U o'z kuchiga ishonishga, mas'uliyatli qarorlar qabul qilishga, unga taskin beradigan yoki qo'rqitadigan har qanday odatlarni uloqtirib tashlashni o'rgandi. Inson tobora ko'proq tabiatga qaramlikdan ozod bo'ldi; u tabiat kuchlarini shu darajada egalladiki, o'tmish davrlarda buni hatto orzu qilish ham mumkin emasdi. Shuningdek, kapitalistik davrning yana bir o'ziga xos tomoni

---

<sup>9</sup> Истон, Д. Категории системного анализа политики / Д. Истон // Антология мировой политической мысли: зарубежная политическая мысль XX в / отв. ред. Г. Ю. Семигин. — М.: Мысль, 1999

odamlarning tengligi ta'minlandi. Insonlarni birlashtiruvchi chegara-kasta va dinga oid tafovutlar yo'qoldi. Siyosiy o'zgarishlar ham bo'ldi. O'rta sinf iqtisodiy tomondan o'z o'rnini bilan birga siyosiy ozodlik va erkinlik uchun ham, shuningdek, siyosiy islohotlar uchun ham kurash boshladi. Chunki o'rta sinf yangi davr insoni sifatida maydonga chiqib, yangicha tafakkur sohibi ekanligini jamiyatdagi normalarga va diniy qoidalarga yangicha munosabati bilan ko'rsatib berdi. Iqtisodiy kurash va muammolarning kuchayib borishi, shuningdek, diniy dunyoqarashning o'zgarib borishi insonlarda sabr-bardoshlilikni, o'zgalarni hurmat qilish va qadrlash hissini zaiflashtirdi.

Dissertant fikricha, postmodern jamiyatda iqtisodiy va siyosiy kurashlarning kengayishi toqatsizlikning turi va ko'lamini ham kengaytirib yubormoqda. Surunkali ishsizlikning kuchayishi insonlarda ishonchlilikni yanada ortishiga olib kelmoqda. Ojizlikning kuchayishida ham chek-chegara qolmadi. Bunga kuchli ta'sir etgan hodisa urishlar sabab bo'ldi. To'g'ri, urishlar bo'lgan va bundan keyin ham bo'ladi. Lekin XX asrda ro'y bergan ikki jahon urishi insonlarni hech qanday qadr-qimmatga ega emasligin tushuntirib qo'ydi. Buni tushungan insonlarda esa kuchsizlik, qo'rquv va ojizlik yanada ortdi. Bugunning insoni harakat qilishi mumkin, biroq u mustaqillik hissi va qadr-qimmatini yo'qotgan, shu bilan birga unda toqatsizlik ham ufarib bormoqda.

Postmodern jamiyatda toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab, *insoniyat* o'z mehnati mahsulidan begonalashdi, u endi o'zi yaratgan olamga xo'jayin emas, aksincha, u yaratgan bu olam uning xo'jayiniga aylandi. Inson uni oldida bosh egypti, unga mehr - shafqatli bo'lishga yoki ayyorlik qilishga urinib ko'ryapti. U o'z qo'li bilan o'ziga Xudo yaratdi. Texnogen sivilizatsiyaning salbiy ta'siri natijasida insoniyat o'zligidan begonalashmoqda va robotlashuv kuchaymoqda.

Tadqiqotda postmodern jamiyatda har bir insonning shaxsiyati tovar sifatida ayriboshlash xususiyati bilan qadrlanishi ta'kidlangan. Insoniy munosabatlar tovar va ayriboshlash holatida ahamiyatga ega bo'ladi, hissiy va ruhiy tomonlar ikkinchi o'ringa tushib qoladi. Iqtisodiy omillardan butunlay xoli bo'lgan do'stlik mavjud bo'lsada, sotuvchi va xaridor, ustoz va shogird o'rtasidagi insoniy munosabatlar istalgan paytda iqtisodiy sababdan uzilishi yoki to'xtashi mumkin bo'ladi. Fikrimizcha, tovar ayriboshlash xudbinlikni kuchaytirishini va odamlar biri-birini aldashi odatiy xolga aylantiradi. Shuningdek, yangicha ehtiyojlarni yaratish ko'proq harakat talab qiladi, maqsadga erishishda faqat o'zini o'ylash begonalashuvni yanada kuchaytirib yuboradi. Odamlar xudbinona ehtiyojlarini qondirish uchun insoniy go'zal munosabatlarini va hissiyotlarini qurbon qiladi. Pul va tovar ayriboshlashga asoslangan aloqa inson va jamiyat munosabatlarini o'zgartiruvchi kuch bo'lib, sadoqatni xiyonatga, sevgini nafratga, ezgulikni yovuzlikka, oqillikni ahmoqlikka aylantiradi, shaxsiyatni ham o'zgartiradi va insoniy munosabatlarni buzadi. Shuning uchun, bozor munosabatlari shakllangan jamiyatda mehribon va mas'uliyatli bo'lish qiyinlashib borishini, kapitalizm sharoitida begonalashuv muammosiga birodarlik muhabbatini shakllantirish yechim bo'ladi<sup>10</sup>.

---

<sup>10</sup> Miyamoto K. Erich Fromm's theory on alienation. University of Massachusetts Amherst: Masters theses. 1987. – P.11.

